


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
“PEDAGOGIKA”KAFEDRASI**

**“TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI”
FANIDAN SEMINAR
MASHG‘ULOTLARINI BAJARISH
BO‘YICHA METODIK KO‘RSATMA**

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2021**

**“TA'LIM TEXNOLOGIYALARI”
FANIDAN SEMINAR
MASHG'ULOTLARINI BAJARISH
BO'YICHA METODIK KO'RSATMA**



Ushbu metodik ko'rsatmada O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonun" talablari asosida Kasbiy ta'lim: "Iqtisodiyot" hamda "Amaliy san'at" ta'lim yo'nalishi talabalarining "Ta'lim texnologiyalari" fanidan seminar mashg'ulotlarini tashkil etish va bajarish bo'yicha masalalar batafsil yoritib berilgan.

Ushbu metodik ko'rsatma "Kasb ta'limi: Iqtisodiyot" hamda "Amaliy san'at" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

**Fayziyeva Umida Asadovna
Saidnazarova Gulshan Bolta qizi**

Taqrizchilar:

K.Ro'ziyeva, TIQXMMI Buxoro filiali "Ijtimoiy gumanitar fanlar, jismoniy tarbiya va sport" kafedrası o'qituvchisi

O.U.Qurbonova, BuxDU "Pedagogika" kafedrası katta o'qituvchisi

Metodik qo'llanma BuxDU o'quv-metodik kengashining 29-dekabr 2020-yildagi 5-sonli yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Ta'lim texnologiyalari fanidan seminar mashg'ulotlarni bajarishga mo'ljallangan ushbu metodik ko'rsatmaning maqsadi - O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonun vazifalaridan kelib chiqqan holda hozirgi zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashda ularning seminar mashg'ulotlarni tashkillashtirish, o'quv mehnati va dam olish madaniyatini uyushtirishdir. O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga og'ishmay rioya etilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat hamda fuqarolar jamiyati qurishga, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga, jamiyatni ma'naviy yangilashga, jahon hamjamiyatiga uyg'unlashuvga qaratilgan yo'lni tanlab oldi. Mamlakatning o'ziga xos mentalitetini hisobga olgan holda O'zbekiston tanlab olgan o'z rivojlanish modeli, shunga olib keldiki, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotning taraqqiy etgan mamlakatlarda umume'tirof etgan tamoyillari hamda me'yorlari hukmron va muqarrar xususiyat kasb etib, ular respublikaning nafaqat hozirgi holatini, balki uning taraqqiyotini belgilaydi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishi uchun doimo qayg'urishimiz zarur" deb ta'kidlab o'tdilar. Insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodlarga o'rgatish, ularni komillikka etaklash yo'llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Insonlarning ma'rifatli va ma'naviy komil bo'lishi - pedagogika fanining asosiy maqsadidir. Umumiy pedagogika fanining bosh masalasi, predmeti ta'lim - tarbiya, shaxsni har tomonlama shakllantirishdir. Tarbiyadagi keng ma'no ta'lim, rivojlanish, ma'lumot bilan bog'langan holda barkamol insonni voyaga etkazishdir. Seminar (amaliy) mashg'ulotlarni olib borish - topshiriqlarni individual tarzda yoki guruhda bajarilishi, vaziyatli ishlanma - keys-stadilar usuli, nazariy bilimlar asosida bilimlar va ko'nikmalarni chuqurlashtirishga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlarni bajarilishidir.

Ilg'or mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalarining tajribasini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy

shakllarini joriy etish va uning mazmunini doimiy ravishda yangilab borish.

Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son qarori qabul qilindi. Qabul qilingan qarorga ko'ra, quyidagilar oliy ta'lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari etib belgilandi: har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan xorijdagi yetakchi turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo'lga qo'yish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o'qituvchilari va olimlarini jalb etish; oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalaridagi ixtisoslik yo'nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollari inobatga olgan holda optimallashtirish; «Ta'lim texnologiyalari» fanining maqsadi bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini «Ta'lim to'g'risidagi» qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan vazifalar hamda Davlat talim standartiga ko'ra qo'yilgan talablar darajasida zamonaviy ta'lim texnologiyalar va ularni o'quv – tarbiya jarayonida qo'llash, zamonaviy ta'lim texnologiyalarning o'quv – tarbiya jarayonidagi o'rni, ulardan foydalanish, shuningdek, “Aqliy hujum”, “Tarmoqlar” (Klaster) usullari, “O'quv loyihasi”, “CHarxpalak”, “Muammoli vaziyatlar” kabi boshqa ta'lim texnologiyalar va ularni o'quv – tarbiya jarayoniga qo'llashning nazariy asoslari bilan izchil qurollantirishdan iborat.

«Ta'lim texnologiyalari» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida Talaba:

- ta'lim texnologiya tushunchasining ilmiy asoslari;
- ta'lim texnologiya kategoriya va tamoyillari;
- ta'lim texnologiyasi va uning tarkibiy qismlari;

- o'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan zamonaviy talablar;
- ta'lim oluvchi shaxsi, ta'lim jarayonida shaxs sifatlarining namoyon bo'lishi;

- ta'lim texnologiyalarning tasnifi va asosiy jihatlarini;
- ta'limni texnologiyalashtirish **haqida tasavvurga ega bo'lishi**;
- ta'lim texnologiyalarning tamoyillari bilan bog'liqlikda keyingi amaliy faoliyatda ta'lim jarayonini pedagogik jihatdan yaxlit tarzda tashkil etish va amalga oshirishni;

- ta'limga texnologik yondoshuv, o'quv maqsadlarini aniqlashtirish, pedagogik faoliyatni oqilona rejalashtirish va tashkil etishni;

- ta'lim oluvchi shaxsining har tomonlama barkamol rivojlanishi, ta'lim jarayonining «jonli», ijodiy tashkil etishga yordam beruvchi ta'limning interfaol metodlarini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

- innovatsion faoliyatni tashkil etish;

- ta'lim texnologiyalarning tasnifi va asosiy jihatlaridan foydalana olish;

- ta'limga texnologik yondoshuv, o'quv maqsadlarini aniqlashtirish;

- pedagogik faoliyatni oqilona rejalashtirish;

- ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llay olish

ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

YUqorida keltirilgan ko'nikmalar fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda shakllantiriladi. Mazkur uslubiy qo'llanmada "Ta'lim texnologiyalari" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda talabalar faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish oid uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

1. "TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" FANI BO'YICHA SEMINAR MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Amaliy mashg'ulot – bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shaklidir.

Amaliy mashg'ulot darslarini ikki turga ajratish mumkin. Bular ma'ruza darsi mavjud bo'lgan va ma'ruza darsi mavjud bo'lmagan fanlardan (masalan, chet tillar) o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar. Amaliy mashg'ulot darslari fan dasturlari va ishchi dasturlari hamda kalendar tematik rejalariga qat'iy amal qilingan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha zarur adabiyotlar ro'yxati beriladi. Ma'ruza darsi mavjud bo'lgan amaliy mashg'ulotlarda asosan ma'ruza darslarida o'tilgan materiallar mashqlar bajarish yordamida mustahkamlanadi.

Amaliy mashg'ulot quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi:

- nazariy materialni tartibga solish.
- ko'nikmalarni hosil qilish.
- bilimlarni nazorat qilish.

Ta'lim beruvchi amaliy mashg'ulotni samarali o'tkazish uchun quyidagilarni hisobga olish zarur:

- o'zining tayyorgarligi, bunda savol va javob texnikasiga ega bo'lishi;
- o'quv guruhining holati: uning motivatsiyasi, uning tashkil etish xususiyati;
- o'quv jarayonining texnik jihozlanishi.

"Ta'lim texnologiyalari" fani bo'yicha amaliy mashg'ulot darslarida yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo'ladi. O'qituvchi darsga kirib, tashkiliy ishlarni o'tkazadi. Xonaning darsga tayyorgarligi, doskaga yozish va o'chirish vositalarining mavjudligi hamda talabalar davomati aniqlanadi. Darsda o'tiladigan mavzu e'lon qilinib, doskaga yozib qo'yiladi. O'tgan mavzuning asosiy mazmuni qisqacha bayon qilinib, yangi mavzu rejasi beriladi. Ma'ruza darslari mavjud bo'lgan fanlardan

Mundarija

Kirish.....	3
1. “Ta’lim texnologiyalari” fani bo’yicha seminar mashg’ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	6
2. “Ta’lim texnologiyalari” fani bo’yicha seminar mashg’ulotlarni tashkil etish va o’tkazish bo’yicha metodik tavsiyalar.....	9
Ilovalar	71
Glossariy.....	83
Foydalaniladigan adabiyotlar ro’yxati	91

**“TA’LIM TEXNOLOGIYALARI” FANIDAN SEMINAR
MASHG’ULOTLARINI BAJARISH BO’YICHA METODIK
KO’RSATMA**

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Ortiqova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 11.06.2021. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog`ozi. Bosma tobog`i 6,0. Adadi 100. Buyurtma №166.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45

Бухоро давлат университети
Ўқув-методик кенгаш 5-сонли
йиғилишининг баённомасидан
КЎЧИРМАСИ

29.12.2020

Бухоро шаҳри

КУН ТАРТИБИ:

4. Турли масалалар.
Педагогика факультети Педагогика кафедраси ўқитувчилари У.Файзиёва ва
Г.Саидназарованинг “Таълим технологиялар” фанидан семинар
машғулотларни бажариш бўйича методик қўлламасини нашрга тавсия этиш.

ЭШИТИЛДИ:

Г.Тоирова (кенгаш котибаси) - Педагогика факультети Педагогика
кафедраси ўқитувчилари У.Файзиёва ва Г.Саидназарованинг “Таълим
технологиялар” фанидан семинар машғулотларни бажариш бўйича методик
қўлламасини нашрга тайёрлаганлигини маълум қилди. Ушбу қўлланмага:
БухДУ Педагогика кафедраси катта ўқитувчиси У.Қурбонов ТИҚХММИ
Бухоро филиали Ижтимоий гуманитар фанлар, жисмоний тарбия ва спорт
кафедраси ўқитувчиси К.И.Рўзиевалар томонидан ижобий баҳо
берилганлигини таъкидлади. Методик қўлланма муҳокамаси ҳақидаги
Педагогика факультети (2020 йил 26 ноябрь) ва Педагогика кафедрасининг
(2020 йил 21 ноябрь) йиғилиш қарори билан таништирди.

Юқоридагиларни инобатга олиб ўқув-методик кенгаш

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Педагогика факультети Педагогика кафедраси ўқитувчилари
У.Файзиёва ва Г.Саидназарованинг “Таълим технологиялар” фанидан
семинар машғулотларни бажариш бўйича методик қўлламаси нашрга тавсия
этилсин.

Ўқув-методик кенгаш раиси
Ўқув-методик кенгаш котибаси

Кўчирма аслига туғри

Ўқув-методик кенгаш котибаси

Даминов М.И.
Тоирова Г.И.

Тоирова Г.И.